**O‘zR FA FIZIKA-TEXNIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/27.02.2020.FM/T.110.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FIZIKA – TEXNIKA INSTITUTI

MAVLONOV ABDURASHID ABDUVAHOBOVICH

$Cu(In,Ga)Se_2$ VA Sb_2Se_3 ASOSIDAGI YUPQA QATLAMLI QUYOSH ELEMENTLARINI TAYYORLASH VA FIZIK XOSSALARINI O‘RGANISH

**01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi
(fizika-matematika fanlari)**

**E’LON QILINGAN ILMIY ISHLAR BO‘YICHA DISSERTATSIYASIZ
FAN DOKTORI (DSc) ILMIY DARAJASINI OLISH UCHUN
TAQDIMNOMA**

Toshkent – 2024

UDK: 621.383.51

Fizika-matematika fanlari doktori (DSc) taqdimnomasi mundarijasi

Table of contents of doctor of science (DSc) presentation in physical and mathematical sciences

Содержание представления доктора физико-математических наук (DSc)

**O'zR FA FIZIKA-TEXNIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/27.02.2020.FM/T.110.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FIZIKA – TEXNIKA INSTITUTI

MAVLONOV ABDURASHID ABDUVAHOBOVICH

$Cu(In,Ga)Se_2$ VA Sb_2Se_3 ASOSIDAGI YUPQA QATLAMLI QUYOSH ELEMENTLARINI TAYYORLASH VA FIZIK XOSSALARINI O'RGANISH

**01.04.10 – Yarimo'tkazgichlar fizikasi
(fizika-matematika fanlari)**

**E'LON QILINGAN ILMIY ISHLAR BO'YICHA DISSERTATSIYASIZ
FAN DOKTORI (DSc) ILMIY DARAJASINI OLISH UCHUN
TAQDIMNOMA**

Toshkent – 2024

Taqdimnoma mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.DSc/FM249 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Taqdimnoma O‘z.Res. Fanlar Akademiyasi Fizika Texnika Institutida bajarilgan.

Taqdimnoma uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning internet sahifasida (www.fti.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Razikov Taxirdjon Mutalovich**
Fizika-matematika fanlari doktori, professor

Taqdimnoma himoyasi O‘z.Res. Fanlar akademiyasi Fizika-texnika instituti huzuridagi DSc.02/27.02.2020.FM/T.110.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 22-avgust soat 10^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Chingiz Aytmatov ko‘chasi, 2B, Fizika-texnika instituti, katta majlislar zali; tel.: 71 235-42-91.; e-mail: ftikans@uzsci.net).

Taqdimnoma bilan Fizika-texnika institutidagi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (381-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Chingiz Aytmatov ko‘chasi 2B, Fizika-texnika instituti kutubxona; tel.: 71 235-42-91)

Taqdimnoma 2024-yil “____ ” ____________ kuni tarqatildi.

(2024-yil “___” __________ dagi № ____ raqamli reestr bayonnomasi).

X. K. Olimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

J. S. Axatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, t.f.d., katta ilmiy xodim

KIRISH (fan doktori (DSc) taqdimnoma annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi. Dunyoda ekologik toza va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini hozirgi kundagi yoqilgi- energiya resurslari (neft, tabiiy gaz, koʻmir) oʻrniga muqobil sifatida rivojlantirish soha olimlari oldidagi eng muhim vazifalardan biriga aylangan. Ushbu sa’y-harakatlar, yani neft, koʻmir va tabiiy gazni ommaviy iste’mol qilishni kamaytirish orqali Yerdagi biotizimlarni himoya qilishga asoslangan. Amalda, mavjud energiya resurslarini yangi turdagi muqobiliga almashtirish bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, energiya resurslaridan foydalanish tahlili “21-asr energiya strukturasi”ni turli qayta tiklanadigan energiya shakllarini oʻz ichiga olgan “Eng yaxshi muvofiqlik davri” sifatida tavsiflanishini nazarda tutadi. Ekologik toza energiya ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlantirish loyihalari orasida fotovoltaik texnologiyalar, ya’ni quyosh elementlari (QE) asosida quyosh nuridan bevosita elektr energiyasi olish, eng istiqbollilaridan biriga aylandi. Bu texnologiya shovqinsiz, tutun kabi ifloslanishsiz insoniyatga beminnat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkonini beradi. Quyosh elementlarining oʻlchamini tanlash orqali bu texnologiya millivatt (mW) dan megavatt (MW) oraligʻida elektr energiyasini ishlab chiqarish imkonini beradi.

Jahonda dastlabki davrda (1950-70 yillar), quyosh elementlarini amaliy qoʻllanishi faqat kosmos loyihalarida, yerning sun’iy yoʻldoshlarini elektr energiyasi bilan taminlash uchun ishlatilishi bilan chegaralangan boʻlsada (bunga sabab quyosh elementlari tannarxi hozirgi kundagilaridan bir necha ming barobar qimmat boʻlgan), ushbu dastlabki davrdagi sohaga qaratilgan etibor hozirgi kundagi erishilayotgan yutuqlarga poydevor vazifasini oʻtab kelmoqda. Hozirda quyosh elementlarini turli geografik makonlarda, choʻllar, bino tomlari va tashqi yuzasi, transport vositalari va hattoki koʻl va dengiz yuzlarida (“floating PV”) koʻrishimiz mumkin. Uzliksiz olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijasida quyosh elementlarini samaradorligi ortib, ishlab chiqarish koʻlami kundan-kunga ortib bormoqda. Biroq, Quyosh modullarining tan narxini yanada arzonlashtirish hozirgi kundagi eng ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu jabhada soʻnggi oʻn yillikda quyosh elementlari uchun kerakli xom-ashyo materiallaridan sanoat darajasida ishlab chiqarish jarayonlarigacha, barcha texnik bosqichlarda keng koʻlamli tadqiqot va izlanishlar olib borilmoqda. Binobarin, fotovoltaik texnologiyalarning narxi sezilarli darajada pasaygan, natijada quyosh stansiyalaridan olinayotgan elektr energiyasining narxi hozirgi yoqilgi- energiya resurslaridan ishlab chiqarilayotgan energiya tannarxiga yaqinlashmoqda. Ushbu texnologiyani yanada raqobatbardosh qilish uchun harajatlarni yanada pasaytirish kerak. Hozirgi kunda polikristall va monokristall kremniy asosidagi quyosh panellari quyosh energiyasi bozori ulushining asosiy >90% qismini tashkil etadi, qolgan <10% esa CdTe va Cu(In,Ga)Se_2 (CIGS) kabi yangi turdagi yupqa qatlamli quyosh panellariga toʻgʻri keladi. Ushbu quyosh elementlarning samaradorligi laboratoriya miqyosida >22% ga va modul darajasida 20% ga yaqinlashgan. Bu koʻrsatkichlar bitta p-n oʻtishli quyosh elementlari uchun olingan. Harajatlarni yanada pasaytirish uchun bir qancha ilmiy muammolarga yechim topish zarur. Fotovoltaik texnologiyalarga asoslangan ikki va undan ortiq p-n oʻtishli quyosh elementlarini (Tandem quyosh elementlari) ishlab chiqarish yoki yer yuzida keng tarqalgan, arzon kimyoviy elementlar asosida samarali quyosh elementlarini tadqiq qilish va ishlab chiqish istiqbolli dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Respublikamizda keyingi yillarda ilm-fan va texnologiyalarni dolzarb va ustuvor yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun fundamental va amaliy tadqiqotlarga tobora ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Xususan, istiqbolli yo‘nalishlardan biri bo‘lgan nazariy va amaliy fizik tadqiqotlarni rivojlantirish bugungi kunning muhim masalasidir. Mamlakatimizda ilm-fanni muvaffaqiyatli rivojlantirish bo‘yicha fundamental tadqiqot va ishlanmalarning asosiy yo‘nalishlari va ularni amaliyotda qo‘llash 2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Strategiyasida o‘z ifodasini topgan. Shuning uchun yuqori samaradorlikka ega quyosh elementlarini o‘rganish fundamental va amaliy tadqiqotlar sohasidagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Mazkur ilmiy tadqiqot ishi quyidagi davlat me’yoriy hujjatlari bilan belgilangan vazifalarga mos keladi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 07-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-fevraldagi “Fanlar akademiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2789-son qarori va boshqalar.

Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasining fan va texnikasini rivojlantirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqotlari O‘zbekiston respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Energiya va resurslarni tejash” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Taqdimnoma mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi[1]. Quyosh elementlari va ularni tayyorlashda kerakli yarimo‘tkazgich materiallarining fizik va texnologik xossalarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlari, jumladan, Halle, Leipzig, Magdeburg universitetlari (Germaniya), Muqobil energiya milliy laboratoriyasi (NREL, AQSH), Kolorado universiteti (AQSh), Shveytsariya Federal Materialshunoslik va Texnologiyalar laboratoriyalari (EMPA), Parma, Verona universitetlari (Italiya), Yangi Janubiy Uels universiteti (Avstraliya), Xitoy elektron fan va texnologiya universiteti (Xitoy), Kyoto va Ritsumeikan universitetlarida (Yaponiya) olib borilmoqda. Bu sohadagi ilmiy izlanishlar nafaqat universitetlarda, quyosh elementlarini ishlab chiqaruvchi zavodlar tomonidan ham doimiy rivojlantirib borilmoqda. Masalan, “First Solar” (AQSh), “Oxford PV” (Buyuk Britaniya), “CTF Solar”, “AVANCIS”, QCELLs (Germaniya), “Solar Frontier”, Panasonic, Sekisui (Japoniya) zavodlarini keltirish mumkin.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirgi kunda olimlar tomonidan dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va universitetlarida samarali quyosh elementlarini olish borasidagi ilmiy tadqiqotlar o‘rganilmoqda. Jumladan, avstraliyalik olim M. Green tomonidan Si asosida, shvesariyalik olim A. Tiwari $Cu(In,Ga)Se_2$ asosida, germaniyalik olim R. Scheer, yaponiyalik olim T. Minemoto va xitoylik

---

[1] Taqdimnoma mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi https://scholar.google.com/, https:// www.linkedin.com/, https://www.dgfi.unsw.edu.au/, https://www.empa.ch/web/s207, https://www. physik.uni-halle.de/fachgruppen/photovoltaik/, https://www.ritsumei.ac.jp va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

olimlar J. Tang Sb_2Se_3 asosida quyosh elementlarini olish bo‘yicha ilmiy ishlar olib borilmoqda.

Oltmish yildan ortiq vaqt davomida ushbu yuqorida sanab o‘tilgan va boshqa materiallar asosidagi quyosh elementlari ustida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Yuqori samaradorlikka ega quyosh elementlarini amalda tayyorlash imkoni borligi isbotlangan. Hozirgi kundagi bu sohadagi ilmiy muammolar quyosh elementlarini tannarxini yanada pasaytirish, samaradorligini oshirish, turli yengil va egiluvchan tagliklarda tayyorlash kabilarni qamrab olgan.

Belorussiya milliy universitetining Fizika fakulteti dekani M.S. Tivanov boshchiligida yupqa qatlamli quyosh elementlarini olish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, O‘zbekistonlik olimlardan T.M. Raziqov rahbarligida Fizika-texnika institutida kimyoviy molekulalar dastalaridan olish usuli (KMDO) bilan ikki va ko‘pkomponentli xalkogenidli yarimo‘tkazgichlardan quyosh elementlarini olishning yangi texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Biroq, shu kunga qadar binar birikma Sb_2Se_3 va $Cu(In,Ga)Se_2$ asosidagi quyosh elementlarini kimyoviy molekulalar dastalaridan olish usuli yordamida tayyorlash o‘rganilmagan. Shu sababli, Sb_2Se_3 va $Cu(In,Ga)Se_2$ asosidagi quyosh elementlarini olish shartlarini o‘rganish, taqdimnomada tavsiya etilgan usulda olingan quyosh elementlarining elektr va optik xususiyatlariga bog‘liqlik qonuniyatlarini o‘rnatish bo‘yicha olib borilayotgan izlanishlar yarimo‘tkazgichlar materialshunosligi va yarimo‘tkazgichlar fizikasining **dolzarb** vazifasi bo‘lib, fan uchun ham, amaliyot uchun ham katta qiziqish uyg‘otadi.

Dissertatsiya mavzusini ushbu mavzuda dissertatsiya olib borilayotgan oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarining ilmiy ishlari bilan bog‘lash. Sb_2Se_3 asosidagi ilmiy ishlar O‘zR Fanlar Akademiyasi tomonidan moliyalashtirilgan “Yangi turdagi xalkogenli materiallar asosida yupqa qatlamli quyosh elementlarini kompleks tadqiq qilish va ishlab chiqish” (2021-2024 yy.) mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan. $Cu(In,Ga)Se_2$ asosidagi ilmiy ishlar Yaponiyaning Solar Frontier va Toshiba kabi kompaniyalari tominidan qiziqish bildirilgan va moliyalashtirilgan.

Tadqiqot maqsadi. $Cu(In,Ga)Se_2$ va Sb_2Se_3 asosidagi yupqa qatlamli quyosh elementlarini olish va fizik hossalarini tadqiq qilish.

Tadqiqot vazifalari:

vakuum va vakuumsiz muhitlarda Sb_2Se_3 yupqa qatlamlarini olish;

vakuum muhitlarda olingan Sb_2Se_3 yupqa qatlamlarini morfologik va strukturaviy xossalarini tadqiq qilish;

vakuumsiz muhitlarda olingan Sb_2Se_3 yupqa qatlamlarini quyosh elementida foydalanish uchun mos keladigan strukturaviy xossalarini rivojlantirish;

$Cu(In,Ga)Se_2$ asosidagi yupqa qatlamli quyosh elementlarini standart (Mo kontakti ustida tayyorlangan quyosh elementi) struktura asosida olish;

standart strukturada olingan $Cu(In,Ga)Se_2$ yupqa qatlamli quyosh elementlari asosida ikki yuza (bifacial) orqali yorug‘lik qabul qilish imkoniga ega quyosh elementlarini tayyorlash va ularning fotovoltaik xossalarni tadqiq qilish;

ikki yuzali strukturada olingan $Cu(In,Ga)Se_2$ yupqa qatlamli quyosh elementlarini tandem quyosh elementlariga tadbiq qilish samaradorligini nazariy tahlil qilish.

Tadqiqot obyekti kimyoviy molekulalar dastalaridan olish usuli va impulsli, lazerli o‘tkazish (pulsed-laser deposition (PLD)) usullari yordamida olingan Cu(In,Ga)Se_2 va Sb_2Se_3 asosidagi yupqa qatlamli quyosh elementlari.

Tadqiqot predmeti vakuum va vakuumsiz muhitda olingan Sb_2Se_3 yupqa qatlamlari, Cu(In,Ga)Se_2 asosidagi yupqa qatlamli quyosh elementlarini standart va ikki yuzali strukturalari, raqamli modellardan foydalangan holda ikki yuzali- “bifacial tandem” strukturali quyosh elementlarning ishlash samaradorligi tahlillari hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Qo‘yilgan vazifalarni yechish uchun vakuum va vakuumsiz muhitda ishlovchi qurilmalarda yarimo‘tkazgichli yupqa qatlamlar va quyosh elementlari olish, olingan yupqa qatlamlarning strukturaviy xossalarni tadqiq etishda rentgen nurlari difraksiyasi usuli, qatlamlarning sirt relyefini aniqlashda atom kuch mikroskopiyasi va skanerlovchi elektron mikroskopiyasi, zaryad tashuvchilarning xarakatchanligini aniqlashda Xoll metodi, optik xossalarini o‘lchashda zamonaviy fotoakustika va fotokuchlanish usullari, tok o‘tish mexanizmlarini aniqlashda volt-amper xarakteristikalarni tahlil qilish, optik yorug‘lik yutish chegarasini aniqlashda zamonaviy ellipsometriya uslublaridan va boshqa bir qancha zamonaviy metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk marta vakuum va vakuumsiz muhitda olingan Sb_2Se_3 yupqa qatlamlarining fizik xossalari orasidagi bog‘liqlik, yani taglikning past T≥300°C haroratlarida olingan Sb_2Se_3 qatlamlari polikristal strukturali (*hkl*, $l \neq 0$) kristal yo‘nalishda taglik yuzasiga perpendikulyar o‘sishi, stexiometrik tarkibda yoki Se ga boy bo‘lishi, elementlarning yuza bo‘yicha tehg taqsimlanishi, taqiqlangan zona kengligi (E_g = 1.12 eV) va solishtirma qarshiligi $10^4 \div 10^6$ Om · șm teng bo‘lishi aniqlangan;

vakuum muhitda taglikning T=250°C haroratida, Argon gazini 2-3 Pa bosimida va 2:3 at.%, 1:4 at.% Sb:Se nisbatli manbalardan olingan Sb_2Se_3 qatlamlari nafaqat (*hkl*, $l \neq 0$), balkim (*hkl*, $l = 0$) cho‘qqilarning intensivligi nisbatan yuqori bo‘lishi, shuningdek, 1:3 at.% Sb:Se nisbatli manbadan olingan Sb_2Se_3 qatlamlari (*hkl*, $l \neq 0$) kristal yo‘nalishda taglik yuzasiga perpendikulyar o‘sishi rentgen strukturaviy tahlil usulida aniqlangan;

vakuum muhitda Sb_2Se_3 yupqa qatlamlarini 300°C dan yuqori bo‘lgan haroratda olish namunadagi “Se” elementini kamayishiga sabab bo‘lishi energiya dispersli rentgen spektroskopiyasi usulida aniqlangan;

vakuumsiz muhitda Sb_2Se_3 olingan yupqa qatlamlarini rentgen nurlari difraksiyasi, skanerlovchi elektron mikroskopiyasi, Xoll metodi va ellipsometriya usullari yordamida tadqiq qilish natijalari asosida samarali quyosh elementlari talablariga mos holda tayyorlashning optimal texnologik rejimlari aniqlangan;

ilk marta Cu(In,Ga)Se_2 asosidagi yupqa qatlamli quyosh elementlarini ikki yuzali holatda o‘tkazish metodini qo‘llash orqali ularning samaradorligini ortishi ko‘rsatib berilgan;

ilk marta ikki yuzali quyosh elementini ko‘p qatlamli strukturada qo‘llash energiya yo‘qolishini sezilarli darajada pasayishi va tandem quyosh elementining samaradorlik quvvatini 62% gacha ortishi ko‘rsatib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

samarali quyosh elementi uchun yuqori sifatli Sb_2Se_3 yupqa qatlamlarini vakuumli muhitda, 300℃ dan past haroratda olishning fizik-texnologik asoslari ishlab chiqilgan;

vakuumli muhitda tayyorlangan Sb_2Se_3 yupqa qatlamlarni sirtiy oksidlanish darajasi o‘rganilgan, shuningdek, Sb_2Se_3 yupqa qatlamlarini yuzasida oksid qatlami hosil bo‘lmasligi aniq tajribalar asosida ko‘rsatib berilgan;

tajriba ma’lumotlarini tahlil qilish asosida ikki yuzali Cu(In,Ga)Se_2 asosidagi yupqa qatlamli quyosh elementlarini rivojlantirish – quyosh nurini ikki (yuqori va quyi) sirtlardan qabul qilish imkonini bergan. Bu o‘z navbatida ko‘proq quyosh nurini yutilishiga va quyosh elementini ishlash samaradorligini ortishiga olib kelgan;

ikki yuzali Cu(In,Ga)Se_2 asosidagi yupqa qatlamli quyosh elementlarini olishning fizik-texnologik asoslari ishlab chiqilgan;

ikki yuzali Cu(In,Ga)Se_2 asosidagi yupqa qatlamli quyosh elementlarini yengil vaznli va egiluvchan polimer taglikda olish imkoniyati ko‘rsatilgan;

Mo metal tagligi va Cu(In,Ga)Se_2 yupqa qatlami orasida hosil bo‘luvchi $MoSe_2$ qatlamining fizik xossalarini boshqarishning fizik-texnologik asoslari ishlab chiqilgan. Natijada Mo va Cu(In,Ga)Se_2 sirt chegarasida energiya yo‘qotishlari bartaraf etilib, Cu(In,Ga)Se_2 asosidagi yupqa qatlamli quyosh elementlarining samaradorligi ortishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi matematik fizika, hisoblash matematikasi va yarimo‘tkazgichlar fizikasining zamonaviy tasdiqlangan usullarini qo‘llash orqali ta’minlangan. Namunalar yarimo‘tkazgichli moddalarni tayyorlashda keng qo‘llaniladigan texnologiyalar asosida olingan. Natijalar qat’iy ravishda umumiy klassik va kvant fizikaning matematik apparati doirasida tahlil etilgan. Hisoblashning zamonaviy raqamli va analitik usullari ham qo‘llanilgan va natijalar mavjud ma’lumotlar va boshqa mualliflarning natijalari bilan taqqoslangan. Ishning xulosalari quyosh elementlari va yarimo‘tkazgichlar fizikasining asosiy qoidalariga mos keladi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yangi yarimo‘tkazgichli element yoki birikmalar asosida samarali quyosh elementlarini shakllantirishdan iborat. Bundan tashqari, hozirda mavjud quyosh elementlarini yanada takomillashtirish – ikki tomonlama quyosh nurini qabul qila oladigan qilib tayyorlash ularni ishlash samaradorligini yanada ortishiga hizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot ilmiy ishlaridan olingan asosiy natijalar kelgusida ekologik toza, arzon va yuqori samarali yupqa qatlamli quyosh modullarini sanoat miqyosida keng ko‘lamda ishlab chiqishni yanada rivojlanishiga turtki beradi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi.

Cu(In,Ga)Se_2 va Sb_2Se_3 yupqa qatlamlari va ular asosidagi quyosh elementlarini rivojlantirish bo‘yicha bajarilgan ilmiy natijalar xorijiy tadqiqotchilarning ishlarida, yani yupqa qatlamli quyosh elementlarini fizik xossalarini tushuntirish va samaradorligini oshirishda ishlatilgan. Tadqiqotning Ilmiy ishlariga “Web of Science” va “Scopus” bazalarida berilgan iqtibosliklar ro‘yxati 1000 dan ortiq bo‘lib (2023 yil Oktyabr holati), shulardan bir qismi quyida keltirilgan:

Turli tarkibli Sb_2Se_3 yupqa qatlamlarning morfologik, strukturaviy, optik va elektr xususiyatlarini oʻrganish asosida olingan natijalar Sb_2Se_3 qatlamlarining parametrlarini optimallashtirishga xizmat qilgan. Bu natijalar xorijiy jurnallarda surma selenid qatlamlari va ular asosidagi quyosh elementlarining elektr va optik xususiyatlarini oʻrganishga bagʻishlangan quyidagi tadqiqotlarda qoʻllanilgan: (Solar Energy Materials and Solar Cells. Impact Factor: 7,267. Vol. 200, 15 September 2019, 109945; Solar Energy, Impact Factor: 5,95. Vol. 187, 15 July 2019, Pages 404-410; Solar Energy, Impact Factor: 5,95. Vol. 188, August 2019, Pages 586-592). Olingan ilmiy natijalar qatlam tayyorlashdagi ilmiy-texnik va texnologik jarayonlarda qoʻllanilishi natijasida Sb_2Se_3 qatlamining morfologiyasi va tuzilmasini yaxshilash imkonini bergan. Buning natijasida Sb_2Se_3 asosida 5,6 % samaradorlikli yupqa qatlamli quyosh elementi yaratilgan.

Cu(In,Ga)Se_2/ITO yuzasida vujudga kelishi kuzatilgan kontakt qarshiligi va elektr potensialini mavjudligi boshqa turdagi yarimoʻtkazgich materiallari asosidagi quyosh elementlarida ham tushuntirib berish imkonini bergan. Xususan, Sb_2Se_3/Fe_2O_4(FeS) yuzasini rivojlantirishda qoʻllanilgan (Solar Energy, Impact Factor: 6,7. Vol. 249, 1 January 2023, Pages 414-423). Bundan tashqari, yarim-shaffof optik hususiyatga ega Cu(In,Ga)Se_2/ITO asosidagi quyosh elementlarini rivojlantirish va ularni chidamliligini oshirishda foydalanilgan (Solar RRL, Impact Factor: 8,31. Vol. 6, 17 February 2022, 2101071). Shuningdek, p-tipdagi CZTSSe asosidagi quyosh elementlarini samaradorligini oshirishda foydalanilgan (Journal of Materials Science: Materials in Electronics, Impact Factor: 2,48. Vol. 32, 7 August 2021, Pages 22535-22547). Keng taqiqlangan energiyaga ega quyosh elementlarida ITO dan foydalanish mumkinligini aniqlashda foydalanilgan (Solar RRL, Impact Factor: 8,31. Vol. 6, 18 May 2022, 2200401). Eng muhimi, kimyoviy usulda tayyorlangan Cu(In,Ga)Se_2/ITO yuzasidan foydalangan holda ham samarali quyosh elementi olish mumkinligini aniqlanishiga asos boʻlgan (Advanced Materials Interfaces, Impact Factor: 6,39. Vol. 10, 1 September 2023, 2300566).

Cu(In,Ga)Se_2/Mo yuzasida vujudga keluvchi $MoSe_2$ qatlamiga bagʻishlangan ilmiy tadqiqot natijalari quyosh elementidagi V_{oc} ni 100 mV ga oshirishga, orqa yuzada vujudga kelgan sigʻim qarshiligini pasaytirishda, va past haroratlarda samarali quyosh elementlarini tayyorlashda foydalanilgan (Nature Energy, Impact Factor: 27,05. Vol. 8, 21 November 2022, Pages 40-51; Advanced Functional Materials, Impact Factor: 19,41. Vol. 33, 20 July 2023, 2303188; Progress in Photovoltaics: Research and Applications, Impact Factor: 8,05. Vol. 30, 21 October 2021, Pages 191-202). Bundan tashqari Sb_2S_3 quyosh elementlarida ham Mo tagligidan foydalanish uchun qoʻllanilgan (Advanced Science, Impact Factor: 17,52. Vol. 10, 5 September 2023, 2303414).

Tadqiqot natijalarini nashr etish. DSc tadqiqoti natijalari Oʻzbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan nufuzli Q1/Q2 tipdagi ilmiy jurnallarida chop etilgan 35 ta ilmiy maqolalarda oʻz aksini topgan.

ISHNING ASOSIY TARKIBI

I qism.

Surma selenid (Sb_2Se_3) noorganik V_2-VI_3 birikmalari oilasiga tegishli yarimo‘tkazgichli birikma hisoblanadi (Bi_2S_3, Bi_2Se_3, Bi_2Te_3, Sb_2S_3, Sb_2Se_3, Sb_2Te_3). Sb_2Se_3 birikmalari tabiiy ravishda stibnit minerali shaklida mavjud bo‘lib, ortorombik tuzilishga ega va [001] yo‘nalishda parallel ravishda biriktirilgan $(Sb_4Se_6)_n$ tasmalar tomonidan hosil bo‘ladi. Ushbu materiallarning o‘xshash tuzilishga egaligiga qaramasdan, ulardan faqat bir nechtasi, masalan, Sb_2S_3, Bi_2S_3 va Sb_2Se_3 – quyosh elementlari uchun qo‘llanishi mumkin. Umuman olganda, nazariy hisob-kitoblar Sb_2Se_3 asosidagi quyosh elementlari V_2-VI_3 birikmalari orasida yuqori potentsialga ega ekanligini ko‘rsatgan.

Sb_2Se_3 quyosh elementi va fotokataliz sifatida foydalanish uchun foydali birikma ekanligi soha olimlarida katta qiziqish uyg‘otdi. Yer qobig‘ida Sb va Se elementlarining ko‘pligi mos ravishda 0,2 va 0,05 ppm va Sb_2Se_3 yaxshi fizik-kimyoviy barqarorlikka ega. 1-rasmda so‘nggi tadqiqot yutuqlari, shuningdek, Sb_2Se_3 asosidagi yupqa qatlamli quyosh elementlarining kelajakdagi tadqiqot yo‘nalishlari ko‘rsatilgan.



1-rasm. Sb_2Se_3-asosidagi quyosh elementlarini muhim tadqiqot yo‘nalishlari. Rasmdagi ingliz tilida ishlatilgan iboralarni tarjimasi: back contact – orqa qismdagi metal kontakt; transparent electrode – shaffof elektr tashuvchi qatlam; glass – oyna taglik; crystal orientation – kristal struktura yo‘nalishi; bad orientation – yomon kristal yo‘nalishi; good orientation – yaxshi kristal yo‘nalishi; Se vacancy – “Se” elementini vakant (bo‘sh) o‘rni; carrier management – zaryad tashuvchi (electron)larni boshqarish/rivojlantirish; light management – yorug‘lik (yutilishi)ni boshqarish/rivojlantirish; current density – elektr toki zichligi; voltage – elektr kuchlanishi.

1-rasmda ko‘rsatilganidek, quyosh elementini samaradorligini oshirish uchun (221) kristall yo‘nalishi va xususiy nuqtaviy nuqsonlar zichligini kamaytirish talab qilinadi. Nuqsonlar orasida Se vakansiyalarini (V_{Se}) kamaytirish muhim hisoblanadi. Umuman olganda, Sb_2Se_3 o‘zining qulay fizikaviy xususiyatlari va ular asosidagi quyosh elementlarining samaradorligini tez sur’atlarda ortib borishi tufayli olimlar hamjamiyatida bu birikma tadqiqotiga qiziqish ortib bormoqda. So‘nggi o‘n yil ichida Sb_2Se_3 va unga turdosh materiallar asosidagi quyosh elementlari bo‘yicha 200 dan ortiq maqolalar nashr etilgan (2-rasm).



2-rasm. Sb_2Se_3 va Sb_2S_3 asosidagi quyosh elementlari ko‘rsatgan natijalar va chop etilgan maqolalar soni keltirilgan. Rasmdagi ingliz tilida ishlatilgan iboralarni tarjimasi: power conversion efficiency – (qushosh elementini) foydali ish koeffisienti; year(s) – yil(lar); bandgap – (yarimo‘tkazgich qatlamni) ta’qiqlangan zona kengligi; spectral intensity – spektr intensivligi (quyosh nurini foton energiyasiga mos holda taqsimlanishi); Shockley-Queisser Limit – Shokley-Qviser limiti; AM1.5 Solar Spectrum – Quyosh nuri AM1.5 holatdagi spektri; number of publication – maqolalar soni; current density – elektr tok zichligi; voltage – elektr kuchlanishi; area – (quyosh elementi) yuzasi.

1.1. Sb_2Se_3 kristal tuzilishi va fizik xossalari

Sb_2Se_3 Pnma (62) kristal guruhiga tegishli bo‘lgan ortorombik tuzilishda (1-rasm) kristallanadi. Sb_2Se_3 ning kristall strukturasi parametrlari bir nechta tadqiqot guruhlari tomonidan hisoblab chiqilgan va o‘lchangan. Sb_2Se_3 kristal panjara o‘lchamlari a = 11,62 ± 0,01 Å, b = 3,962 ± 0,007 Å va c = 11,77 ± 0,01 Å bo‘lib, eng kichik hujayra hajmi 0.524 nm^{-3} ga teng. Bog‘langan Sb-Se ning masofalari 2,576 Å dan 2,777 Å gacha, bog‘lanmagan Sb-Se ning masofalari esa 2,98 Å dan boshlanadi. Se-Sb-Se va Sb-Se-Sb burchaklari mos ravishda 86,6° va 96,0° va 91,0° va 98,9° ga teng. Sb_2Se_3 tuzilishi *c* o‘qi bo‘ylab Se-Sb-Se zanjirlaridan iborat. Ya’ni, Sb_2Se_3 kristali Sb_4Se_6 birliklaridan hosil bo‘lgan bir o‘lchovli (1D) lentalardan tashkil topgan kristall tuzilishga ega, ushbu lentalar o‘zaro zaif Se-Se ta’sirlari bilan bog‘langan. Stereokimyoviy faol Sb s^2 bog‘lari Sb atrofida kvadrat piramidal koordinatsiyaga olib keladi; Shunday qilib, bu lentalar orasidagi bo‘sh joyni egallaydi. Umuman olganda, 1D kristal topologiyasi Sb_2Se_3 ning yuqori samarali quyosh elementi uchun asosiy afzalliklaridan biridir. Boshqacha qilib aytganda, Sb_4Se_6 birliklaridan hosil bo‘lgan 1D lentalar orasidagi bog‘lanishlar lentalar ichidagi bog‘lanishlarga nisbatan kuchsizroq bo‘lib, elektronlarning harakatidagi anizotropik xususiyatni asosiy sababidir. 1D tuzilishi tufayli, lentalarga parallel ravishda hosil bo‘lgan chegaralari (“grain boundary”) zaryad tashuvchilarning (free electrons) rekombinatsiyasini kamaytirish uchun tabiiy ravishda yaxshi bo‘ladi. Bu, ayniqsa, uch o‘lchamli (3D) bog‘lanishga ega polikristal strukturali quyosh elementlarida mavjud. Nazariy hisoblashlar (Density Functional Theory) bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, Sb_2Se_3 donalari chegaralari elektr jihatdan yaxshi o‘tkazuvchidir.

Kristalning (001) ortogonal yuzalari, masalan, (010), (110) va (120) sirtlar eng past sirt energiyalariga egaligi hisoblab chiqilgan. Bundan tashqari, Sb_2Se_3 qatlamlarining o‘rtacha sirt potentsiali 9,1 mV ekanligi aniqlangan bo‘lib, bu CIGS yoki CZTS (> 100 mV) dan keskin past. Shunday qilib, Sb_2Se_3 da, agar sirtlar mos ravishda yo‘naltirilgan $[Sb_4Se_6]_n$ lentalari bilan tugatilgan bo‘lsa, Sb_2Se_3 da nuqsonlarda rekombinatsiya yo‘qotilishini minimum darajada kamaytirish mumkin. 3D polikristalli yupqa qatlamli quyosh elementlarida zaryad tashuvchilarning rekombinatsiyasi passivatsiya yo‘li bilan kamaytirilishi mumkin.

Taqqoslash uchun, Sb_2Se_3 da bunday passivatsiya talab etilmaydi, ammo yupqa qatlamning yo‘nalishini nazorat qilish orqali, anizotropik xususiyatlar tufayli, yuqori samaradorlikka ega quyosh elementlariga erishishning asosiy omillaridan biridir. Yuqorida aytib o‘tilganidek, Sb_2Se_3 ning 1D anizotropik strukturasi elektr zaryadni samarali tashish xususiyatlarini keltirib chiqaradi. Umuman olganda, Sb_2Se_3 p-tip elektr o‘tkazuvchanlikka ega va bu quyosh elementi uchun muvofiq hisoblanadi. Biroq, ba’zi Sb_2Se_3 namunalari Te, Bi kabi kirishmalar bo‘lsa, n-tipidagi o‘tkazuvchanlikni ko‘rsatadi. Bundan tashqari, selen bo‘shlig‘i (V_{Se}) kabi Sb_2Se_3 ning xususiy nuqsonlari ham n-tipidagi nuqson hosil qiladi, ya’ni ekertron donorlik xususiyatiga ega. P-tipidagi Sb_2Se_3 quyosh elementlari uchun ishlatilganligi sababli, namunalarni p-tipda tayyorlash maqsadga mufoviq.

Sb_2Se_3 namunalarining qorong‘u va yoritilgan o‘tkazuvchanlik qiymatlari mos ravishda 2×10^{-8} va 1×10^{-6} $(\Omega\ cm)^{-1}$ ni tashkil etdi. Zaryad tashuvchilar (musbat zaryadli kovaklar) 22 $cm^2V^{-1}s^{-1}$ harakatchanligi aniqlangan bo‘lib, bu CZTS (10 $cm^2V^{-1}s^{-1}$) yoki PbSe (<1 $cm^2V^{-1}s^{-1}$) dan ham yuqori. Shunga qaramay, maksimal harakatchanlik va minimal rekombinatsiyani saqlab qolish orqali quyosh elementlari samaradorligini oshirish uchun 1D kristall donalarini yo‘naltirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, samarali quyosh elementlari uchun erkin zaryad tashuvchilar zichligi ~ 10^{13} cm^{-3} dan 10^{16} cm^{-3} gacha bo‘lgan optimal qiymatdan pastroq bo‘lib, Sb_2Se_3 da erkin zaryad tashuvchilar zichligini oshirish maqsadga muvofiq.

Sb_2Se_3 ustidagi dastlabki ishlarda Sb_2Se_3 kristallarning faollashuv energiyasi (activation energy, E_a) keng energetic sohada (0.2÷1.0 eV) o‘zgarishi aniqlangan. Bu o‘zgarish 0.54÷0.66 eV oralig‘ida energiya bo‘shlig‘ida boshqa holatda biriktirilgan Fermi sathidagi farq yoki Sb_2Se_3 namunalarida qalinligiga bog‘liqligi aniqlangan.

Faollashtirish energiyasi kimyoviy tarkib bilan ham bog‘liqligi aniqlangan bo‘lib, Sb_xSe_{1-x} namunalarida x ni qiymati 0.0 dan 0.9 gacha bo‘lganda, E_a 1.0 eV dan 0.2 eV gacha pasayishi aniqlangan. Xabar qilingan yuqori faollik energiyasi chuqur sathli nuqsonlarning energetik sathlari mavjudligini ko‘rsatadi. Shularni hisobga olgan holda o‘stirilgan Sb_2Se_3 qatlamlaridagi asosiy nuqson zichligi taxminan 10^{14} cm^{-3} ekanligi aniqlandi, bu CdTe asosidagi quyosh elementlaridagidan yuqori (10^{11} dan 10^{13} cm^{-3} gacha). Xulosa qilib aytganda, V_{OC} ni oshirish va quyosh elementi samaradorlini yaxshilash uchun ushbu chuqur sathli nuqsonlar zichligini kamaytirish talab etiladi.

1.2. Vakuumsiz usulda Sb_2Se_3 namunalarini o‘stirish.

Sb_2Se_3 namunalarini vakuumsiz muhitda o‘stirish quyosh elementini tan narxini pasaytirish uchun samarali yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Sb_2Se_3 namunalari birinchi marta kimyoviy molekulalar dastalaridan olish usuli bilan olindi. Yuqorida sanab o‘tilgan samarali quyosh elementi olish uchun zarur fizik xossalari o‘rganildi.

Ya’ni, Sb_2Se_3 namunalarining morfologik va strukturaviy xususiyatlari o‘rganildi va ularni samarali boshqarish yo‘llari aniqlandi. Bu maqsadda, Sb_2Se_3 namularini turli bosqichdagi taglik haroratida, tashuvchi vodorod gazini oqimi tezligining funktsiyasi sifatida tartibli o‘rganildi.

Tajriba ma’lumotlar shuni ko‘rsatdiki, vodorod oqimi past bo‘lganda, Sb_2Se_3 namunalari Se-boy holatda o‘sadi va namunalar asosan amorf strukturada bo‘ladi. Biroq, bu holatda, Sb_2Se_3 namunalarini kristal strukturasi kichik (221) cho‘qqilarni ko‘rsatdi. Bundan farqli o‘laroq, vodorod oqimining yuqori tezligida qatlamlar Sb ga boy tarkibga va polikristal strukturaga ega bo‘lib o‘sishi, va (211) yo‘nalishlarni intensivligi ortishi kuzatildi (3-rasm). Sb ga boy holatda namunalarni o‘sishi yuqori taglik harorati bilan bog‘liq bo‘lib, buni namunadan Se ning qayta bug‘lanishi bilan tushuntirish mumkin (4-rasm).



3-rasm. Vakumsiz usulda belgilangan taglik haroratida turli xil vodorod oqim tezligida o‘stirilgan Sb_2Se_3 qatlamlarining Rentgen nurlari diffraktsiyasi ma’lumotlari. Rasmdagi ingliz tilida ishlatilgan iboralarni tarjimasi: intensity – intensivligi; deg. (=degree) – (burchak) gradusi.



4- rasm. (a, b) Kichik vodorod oqimi tezligi (5-7) cm^2 / min va (c, d) yuqori vodorod oqim tezligida (18-20) cm^2 / min o‘stirilgan Sb_2Se_3 namunalarining SEM tasvirlari. Rasmlar 8.5 mm ish masofasi bilan 15 kV tezlashuv kuchlanishida qayd etilgan.

Polikristal Sb_2Se_3 namularini elektr va optik xususiyatlari *p*-tipidagi o‘tkazuvchanlikni va yuqori yutish koeffitsienti (10^5 cm^{-1}) hamda 1.1 eV qiymatli optik taqiqlangan soha kengligiga egaligi aniqlandi. Ushbu tajriba natijalar vakuumli usulda o‘stirilgan Sb_2Se_3 namularini fizik xususiyatlari bilan mos keladi, va yupqa qatlamli quyosh elementlari uchun muvofiq hisoblanadi.

1.3. Vakuum muhitda Sb_2Se_3 namunalarini o‘stirish.

5A rasmda turli taglik temperaturalarida vakuum sharoitida impulsli lazerli o‘tkazish (PLD) usulida o‘stirilgan Sb_2Se_3 yupqa qatlamlarining Rentgen nuri spektrlari tasvirlangan. Ko‘rsatilgandek, past haroratda o‘stirilgan (175℃ gacha) namunalar amorf strukturada bo‘ladi. Yuqoriroq taglik haroratida (250℃), namunalar polikristal strukturada o‘sadi, ya’ni barcha Rentgen nuri diffraktsiya cho‘qqilari Sb_2Se_3 ning ortorombik fazasiga mos indekslanadi (JCPDF # 15-0681). Biroq, bu namunada nafaqat quyosh elementi uchun foydali cho‘qqilar, ya’ni (*hkl*, $l \neq 0$), balki foydasiz (*hkl*, $l = 0$) cho‘qqilar ham namoyon bo‘lgan. 300÷400℃ oralig‘idagi taglik haroratlari uchun namunalar maqsadli kimyoviy tarkibdan qat’i nazar, asosan noqulay (*hkl*, $l = 0$) cho‘qqilar bilan o‘sishi aniqlandi. Bundan tashqari, 300℃ dan yuqori taglik haroratida o‘stirilgan Sb_2Se_3 yupqa qatlamlari stexiometrik nisbatga nisbatan past kimyoviy tarkibga ega, bu Se elementining namunadan qayta bug‘lanishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu vakuum kamerasining (inside the PLD chamber) ifloslanishiga va kameraning "kirish oynasi" ning Se qatlami bilan qoplanishiga olib keladi.



5-rasm. (A) PLD usuli bilan ko‘rsatilgan taglik haroratida o‘stirilgan, va (B) tez termal toblash tizimi yordamida Ar atmosferasida 5 daqiqa davomida 400℃ haroratda qizdirilgan Sb_2Se_3 namunalarining Rentgen difraksiya spektri. Rasmdagi ingliz tilida ishlatilgan iboralarni tarjimasi: counts – signal intensivligi soni (raqamlarda); as-grown – yangi tayyorlangan holatdagi namunalar uchun; post-annealed (Ar) – argon gaz muhitida qizdirilgan namunalar uchun; 2 theta (degree) – rentgen nuri difraksiyasi usulida nurning namuna sirtiga nisbatan burchagi (gradusda).

Shunday qilib, 300°C dan past bo‘lgan taglik haroratida Sb_2Se_3 yupqa qatlamlarini vakuum sharoitida o‘stirish lozimligi tasdiqlandi. 5B-rasmda turli Ar gazi bosimida olingan Sb_2Se_3 qatlamlarning Rentgen nuri spektri ko‘rsatilgan. Amorf fazadan polikristal fazaga aniq o‘tish kuzatilganiga qaramay, asosan intensivlik ortishi “keraksiz” (*hkl*, l = 0) kristal yo‘nalishlarda kuzatildi, bu (230) uchun sezilarli. Adabiyotda bu qonuniyat yuqori harorat bilan bog‘liq edi. Yuan va boshqalar toblanish haroratining 320÷440°C oralig‘ida ortishi asosan (110), (020), (120), (230) va (240) intensivligi oshishini aniqladilar. Li va boshqalar ham 330℃ haroratda Sb_2Se_3 qatlamlarni (*hkl*, l = 0) ga ega kristal yo‘nalishlarda o‘sishini tasdiqladilar. Bu (*hkl*, l=0) kristall orientatsiyalar, xususan, (120) quyosh elementlarining elektr qarshiligi ortishiga sabab bo‘lgani tufayli, uni oldini olish kerak. N_2 gazi bosimi ostida ham Ar gasi kabi bir xil natijalar olindi. Yuqoridagi o‘tkazilgan tajribalar kristall yo‘nalishini yaxshilash uchun yetarli bo‘lmaganligi sababli, ayniqsa, pastroq taglik haroratida o‘stirilgan Sb_2Se_3 qatlamlar amorf strukturada o‘sganligi sababli, ushbu namunalar keyinchalik 250℃ haroratda, turli Ar bosimida qisqa muddatga (5min. “rapid thermal annealing” usulida) qizdirildi. 6A-rasmda Sb:Se nisbati 1:4 at.% bo‘lgan manba yordamida turli Ar bosimi ostida o‘stirilgan Sb_2Se_3 yupqa qatlamlar uchun Rentgen nuri spektrlari tasvirlangan. Ko‘rinib turibdiki, qulay cho‘qqilarning intensivligi, ya’ni (*hkl*, $l \neq 0$) kristal yo‘nalish intensivliklari Ar bosimi tasirida o‘zgargan, bu erda 2 va 3 Pa oralig‘idagi Ar bosimi ostida o‘stirilgan qatlamlarda (211) va (221) kristal yo‘nalishlar intensivligi (120) cho‘qqiga nisbatan yuqori holatda bo‘lishiga erishildi.



6-rasm. (A) PLD usuli bilan o‘stirilgan Sb_2Se_3 namunalarining XRD spektri: (A) turli Ar bosimi ostida, va (B) o‘zgarmas Ar qisman bosimi (2.5 Pa) uchun 3 xil elementlar tarkibdagi manbalar asosida olingan namunalar. Barcha Sb_2Se_3 namunalar 300℃ taglik haroratida ZnO/shisha tagliklarida o‘stirilgan. Rasmdagi ingliz tilida ishlatilgan iboralarni tarjimasi: Intensity – signal intensivligi (raqamlarda); PLD target – PLD manbasi; 2 theta (degree) – roentgen nuri difraksiyasi usulida nurning namuna sirtiga nisbatan burchagi (gradusda).

Keyingi holatlarda, Sb_2Se_3 yupqa qatlamlari 2.5 Pa Ar bosimi ostida o‘stirildi. 6B-rasmda uchta turli tarkibga ega manbalardan foydalangan holda 250° haroratda olingan Sb_2Se_3 qatlamlarining Rentgen nuri spektrlari ko‘rsatilgan, ya’ni manbalardagi Sb:Se nisbati 2:3 at.%, 1:3at. % va 1:4 at.% ga teng. Bundan, manbalar tarkibi ham kristallografik fazalarning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Stexiometrik nisbatga ega manba uchun (Sb:Se nisbati 2:3 at.%) nafaqat (*hkl*, $l \neq 0$), balkim (*hkl*, $l = 0$) kristal yo‘nalishlar ham kuzatildi, va (*hkl*, $l = 0$) cho‘qqilarning intensivligi nisbatan yuqori bo‘lishi kuzatildi. Xususan, (020) va (120) cho‘qqilar eng yuqori intensivlikni ko‘rsatdi. Boshqa manba (Sb:Se nisbati 1:3 at.%) asosida olingan namunalarda, asosan (*hkl*, $l \neq 0$) kristal yo‘nalishlar bilan o‘sdi. Ular orasida eng yuqori intensivlik (211) va (221) yo‘nalishlarga to‘g‘ri keldi. Eng yuqori Se tarkibiga ega bo‘lgan manba uchun (Sb:Se = 1:4 at.%), faqat (*hkl*, $l = 0$) cho‘qqilari olingan. Ko‘rinishidan, Sb_2Se_3 quyosh elementiga mos kristal strukturada tayyorlash uchun nafaqat taglik harorati, balki Ar gazi bosimi va manbadagi Sb:Se nisbati ham hisobga olinishi kerak. Bularni hisobga olib, eng yaxshi holatda (namunalar 250° taglik harorati, 2.5 Pa Ar bosimi, va 1: 3 at.% Sb:Se nisbatiga ega manba) olingan namunaning fizik hossalari o‘rganildi.



7-rasm. Turli Sb:Se nisbatiga (at.%) ega PLD manbalari asosida tayyorlangan Sb_2Se_3 qatlamlarining SEM tasvirlari: (A) 2:3; (B) 1:3; va (C) 1:4.

7-rasmda 6B-rasmda muhokama qilingan Sb_2Se_3 yupqa qatlamlarining FESEM (field effect scanning electron microscope) tasvirlari keltirilgan. Sb:Se ning manbadagi nisbati 2:3 at.% bo‘lganda, (*hk*0) yo‘nalishlari ustuvor edi (6B-rasm), bu yerda 1D $(Sb_4Se_6)_n$ kristal lentalari taglik yuzasiga parallel ravishda o‘sganini bildiradi. FESEM tasvirida, bu moyillik kristall donalari turli o‘lcham va shaklda o‘sganini ko‘rish mumkin. Sb:Se = 1:3 at.% holat uchun aniq kristall donalari tasvirlangan, bu Rentgen nuri difraksiyasi natijalari bilan mos keladi. Eng yuqori Se konsentrasiyasiga ega bo‘lgan manba uchun, ya’ni Sb:Se = 1:4 at.%, Sb_2Se_3 kristal donalar aralashgan holatini ko‘rish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, 7A va 7B-rasmda kuzatilgan donalarning ikkala shakli 7C-rasmdagi namunada mavjud bo‘lib, ya’ni bu namunada (*hk*0) va (*hk*1) kristal yo‘nalishlar shakllanganini tasdiqlaydi (6B-rasm).

Yarimo‘tkazgich namunalarni kimyoviy tarkibini o‘sish yo‘nalishida turli taqsimlanishi yoki namuna sirtini vaqt o‘tishi bilan oksidlanishi kabi holatlar ham quyosh elementi samaradorligiga ta’sir etuvchi omillardan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Sb_2Se_3 qatlamining o‘sish yo‘nalishi bo‘yicha kimyoviy tarkibining bir xilligi hamda sirtiy oksidlanish darajasi tekshirildi. Buning uchun, quyosh elementi uchun kerakli kristal strukturaga ega bo‘lgan Sb_2Se_3 namunasi tanlandi: Sb:Se nisbati 1:3 at.% ga teng manba; 2.5 Pa Ar bosimi; va 250℃ taglik harorati holatida o‘stirilgan.



8-rasm. PLD usuli bilan 300 ◦C taglik haroratida ZnO/shisha tagliklarida o‘stirilgan Sb_2Se_3 namunalarining (A) 0.4◦ burchak ostida o‘lchangan GIXRD spektri, (B) kesim yuzaning SEM tasviri va (D) kimyoviy elementlarni EDX tasviri. (C) Sb_2Se_3 namunasining optik shaffofligi (ichki tasvir: Sb_2Se_3 namunaning taqiqlangan zona kengligi). Rasmdagi ingliz tilida ishlatilgan iboralarni tarjimasi: intensity – signal intensivligi soni (raqamlarda); 2 theta (degree) – Rentgen nuri difraksiyasi usulida nurning namuna sirtiga nisbatan burchagi (gradusda); transmittance – namunani shaffofligi; wavelength – to‘lqin uzunligi.

8A-rasmda 0.4° burchak ostida olingan GIXRD (grazing incident XRD) spektri tasvirlangan. Koʻrsatilganidek, GIXRD spektri XRD natigasi bilan deyarli bir xil (6B-rasm). Ya'ni Sb_2O_3 choʻqqilarining yoʻqligi namuna yuzasida oksid qatlami hosil boʻlmaganligidan dalolat beradi. 8B va 8D mos ravishda Sb_2Se_3 / ZnO / SLG strukturasining kesma tasvirini va mos ravishda energodispersiyali Rentgen spektroskopiyasi (EDX) xaritasini koʻrsatadi. Bundan Sb_2Se_3 namunasini boʻshliqlarsiz va kimyoviy tarkibi gradientsiz oʻsganini koʻrishimiz mumkin. 8C-rasmda Sb_2Se_3 yupqa qatlamning optik shaffofligi va bu asosida hisoblangan taqiqlangan zona kengligi (E_g = 1.12 eV) keltirilgan boʻlib, u nazariy jihatdan hisoblangan E_g qiymatiga mos keladi. Bu implusli, lazerli oʻtkazish usulida olingan Sb_2Se_3 yupqa qatlami yaxshi optik xususiyatlarga ega ekanligini koʻrsatadi.

PLD usuli yordamida samarali quyosh elementi uchun foydali fizik xossalarga ega Sb_2Se_3 yupqa qatlamlari muvaffaqiyatli tayyorlandi. Se ga boy kimyoviy tarkibni qoʻshimcha selenizasiya jarayonisiz amalga oshirish mumkinligi koʻrsatildi. Bundan tashqari, avzallik kristallografik orientatsiyaga ega Sb_2Se_3 yupqa qatlam hosil boʻlishi uchun bir vaqtda PLD usulini hamma parametrlarini hisobga olish zarurligi koʻrsatildi.

II qism.

2.1. Egiluvchan, yengil va ikki yuzasidan yorugʻlik yigʻuvchi CIGS quyosh elementlarini olish

Egiluvchan, yengil vaznli va ikki yuzasidan yorugʻlik yigʻish imkoniga ega $Cu(In,Ga)Se_2$ quyosh elementlari an'anaviy (qattiq shisha tagliklarda tayyorlanadigan) quyosh elementlarga qaraganda bir qancha ustunliklarga ega boʻlib, binolarni tom va sirtini va avtomobil yuzasini qoplash kabi koʻplab qulayliklarga ega. Bundan tashqari, bu turdagi quyosh elementlari quyosh modulining taxminan 80% ogʻirligini tashkil etuvchi shisha qatlamini talab etmaydi. Qoʻshimcha ravishda, toʻgʻridan-toʻgʻri quyoshdan keluvchi nurdan tashqari, unga qoʻshimcha ravishda er sirtidan qaytgan yorugʻlik (albedo) nurlanishini ham bir vaqtning oʻzida yigʻish orqali quyosh elementlarining samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Buni ikki yuzasidan yorugʻlik yigʻish imkoniga ega quyosh elementi orqali amalga oshirish mumkin, chunki bunday quyosh elementining old va orqa yuzasidan yorugʻlik (bir vaqtda) toʻplanishi hisobiga quyosh elementining ishlash samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Bu turdagi quyosh elementlarini tayyorlash quyidagi tartibda amalga oshirildi. 50 μm qalinlikdagi egiluvchan ftorli etilen propilen (FEP polymer substrate) polimer tagligi ustida “superstrate” strukturadagi ikki yuzasidan yorugʻlik yigʻish imkoniga ega quyosh elementini (bifacial solar cell) tayyorlandi va fizik hossalari oʻrganildi. Egiluvchan, yengil va ikki yuzasidan yorugʻlik yigʻuvchi CIGS quyosh elementlarini olish 9-rasmda koʻrsatilganidek, uch bosqichda tayyorlandi. Birinchidan, standard “substrate” tipidagi quyosh elementlari Al-Ni / $Zn_{0.9}Mg_{0.1}O$:Al (AZMO) / $Zn_{0.8}Mg_{0.2}O$ (ZMO) / CdS / CIGS / Mo / Ni-Al / SLG tuzilishida tayyorlandi (9A-rasm). 2.5 μm qalinlikdagi CIGS absorber qatlamlari Mo/SLG tagliklarida uch bosqichli bugʻlanish jarayoni (the three-stage evaporation process) usulida yuqori taglik haroratida (~550°C) oʻstirildi. Keyin, 40 nm qalinlikdagi CdS-bufer qatlami 80°C da kimyoviy vannada choʻktirish (chemical bath deposition) usulida tayyorlandi.

Soʻngra, ikkinchi bufer qatlam (50 nm ZnMgO (ZMO)) va shaffof elektrod (700 nm ZnMgO:Al (AZMO)) qatlamlari radiochastotali magnetron changlatish (rf magnetron sputtering) usulida xona haroratida olindi. Nihoyat, Al (1.6 μm)/Ni (100 nm) ikki qatlamli metal kontaktlari elektron dastalaridan o‘tkazish (elektron beam deposition (EB)) usulida olindi. Ushbu quyosh elementini fizik hossalari va ishlash samaradorligi o‘rganilgandan so‘ng, ikkinchi bosqichda, 50 μm qalinlikdagi FEP-polimer qatlami elektr toki o‘tkazmaydigan epoksid yelimi yordamida 100℃ haroratda quyosh elementi ustiga biriktirildi va quyosh elementini Mo/SLG tagligidan ajratish uchun ko‘tarilish jarayoni (“the lift-off process”) amalga oshirildi (9B-rasm).



9-rasm. (A) CIGS asosidagi standart strukturali quyosh elementi, (B) CIGS quyosh elementini Mo qatlamdan ajratishning “lift-off” usuli va (C) “superstrate” arxitekturasiga ega ikki yuzasidan nur yig‘ish imkoniga ega quyosh elementini sxemalari. Pastdagi strelka quyosh elementini ishlab chiqarish ketma-ketligini ko‘rsatadi. Rasmdagi foydalanilgan qisqartmalar quyidagicha: AZMO/ZMO – $Zn_{0.9}Mg_{0.1}O$:Al (2 wt.%)/$Zn_{0.8}Mg_{0.2}O$ shaffof elektrodlar; CIGS – $Cu(In,Ga)Se_2$ yutuvchi (absorber) qatlami; SLG - sodali shisha taglik; va FEP - ftorli etilen propilen polimer qatlam. Mos ravishda quyosh elementlarini haqiqiy tasvirlari yuqorida ko‘rsatilgan. Rasmdagi ingliz tilida ishlatilgan iboralarni tarjimasi: substrate cell – Mo kontakti ustida tayyorlangan quyosh elementi; lift-off process – quyosh elementini Mo qatlamdan ajratib olish jarayoni; bifacial cell – ikki yuzadan yorug‘lik qabul qilish imkoniga ega quyosh elementi; front illumination – yorug‘likni yuqori yuzadan qabul qilish; rear illumination – yorug‘likni pastki yuzadan qabul qilish.

Nihoyat, ITO (In_2O_3:Sn) shaffof elektrodi va Al/Ni metal qatlami o‘stirish orqali yuzasi 0.23 cm^2 ga teng Al-Ni/ITO/CIGS/CdS/ZMO/AZMO/Ni-Al/Epoksid/FEP strukturali, “superstrate” tipidagi tuzilishiga ega ikki yuzasidan yorug‘lik yig‘ish imkoniga ega quyosh elementlari olindi (9C-rasm).

ITO qatlamning optik hususiyatlari SLG tagligida olingan ITO qatlamlarida “UV/VIS/NIR” spektrofotometr yordamida tekshirildi (Shimadzu UV-3600), elektr qarshiligi va namunalarning qalinligi mos ravishda 4 nuqtali zond usuli (NPS, JS TC-400-TF-VR) va mexanik profilometr (Dektak XT, Bruker) qurilmalarida o‘rganildi. ITO yupqa qatlamlarining kristallik sifati rentgen nurlari diffraktsiyasi (XRD) bilan o‘rganildi.



